



FRANSUZ VA O'ZBEK MATA LLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Muallif: Ikromova Lola Boltayevna¹

Affiliyatsiya: Buxoro Davlat universiteti, Fransuz filologiyasi kafedrasи o'qituvchisi, Xorijiy tillar fakulteti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15168013>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fransuz va o'zbek matallarining lingvokulturologik xususiyatlari, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Matallar ham xalq og'zaki ijodi hisobanadi. Matallar asrlar davomida avloddan-avlodga og'zaki tarzda etkazilib kelishi va ular xalq tajribasi va dunyoqarashining ifodasi sifatida shakllanganligi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan. Matal xalq donishmandligi va hayotiy tajribasining natijasi hisoblanib, unda chuqr ma'no mujassamdir. Matal bevosita emas, balki majoziy ifoda orqali tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: Matal, xalq donishmandligi, qiyosiy tahlil, o'zbek matali, fransuz matali, til xususiyatlari, urf-odatlar, axloqiy dunyoqarash, madaniy meros

KIRISH

Matallar har bir xalqning madaniyati va tafakkur tarzini aks ettiruvchi muhim til birliklaridan biridir. Ular xalqning hayotiy tajribasi, urf-odatlar, axloqiy qarashlari va dunyoqarashini yoritadi. Lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan, matallar madaniy merosning ajralmas qismi bo'lib, turli xalqlarning qadriyatlarini solishtirish va tahlil qilish imkonini beradi.

Ushbu maqolada fransuz va o'zbek matallarining lingvokulturologik xususiyatlari, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Matallar ham xalq og'zaki ijodi hisobanadi. Fransuz matallari haqida gapi radigan bo'lsak, ular asrlar davomida avloddan-avlodga og'zaki tarzda etkazilib kelgan. Ular xalq tajribasi va dunyoqarashining ifodasi sifatida shakllangan. Ko'plab fransuz matallari qadimgi Rim va Yunon madaniy merosidan olingan bo'lib, ular lotincha maqollar ta'sirida rivojlangan. Fransuz tilida mataла Diction deb ataladi. Ular xalq orasida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qisqa va sodda iboralar bo'lib, ular odatda tabiat, fasllar, kundalik hayot va turmush bilan bog'liq bo'ladi. Fransuz matallarining kelib chiqishining asosoiy omillari, xalq donoligi va hayotiy tajriba, ob-havo va fasllar, diniy va an'anaviy ta'sir, astronomik va kalender hisoblangan. Matallar odamlarning uzoq yillik kuzatuvlari asosida yaratilgan bo'lib, fransuz matallari ko'pincha qishloq xo'jaligi, dehqonchilik va fasllar bilan bog'liq bo'ladi. o'rta asrlar va diniy festivallar bilan bog'liq matallar ham mavjud. Ba'zi matallar yil fasllarining o'zgarishi yoki muhim bayramlarga bag'ishlangandir.

ASOSIY QISM

Fransuz matallari ko'pincha qofiyali va ritmik shaklda bo'lib, ularni eslab qolish va og'zaki aytib yurish oson bo'lgan. Endi matallardan ayrim namunlar keltirsa:

"En avril, ne te découvre pas d'un fil" tarjimasi- Aprel oyida hech qanday ipni echma. Ya'ni, aprel oyida ob-havo hali o'zgaruvchan bo'ladi, shuning uchun issiq kiyimlarni tezda tashlamaslikni anglatadi.

"À la Sainte-Catherine, tout bois prend racine" tarjimasi - *Avliyo Ketrin kunida barcha daraxtlar ildiz otadi*. Bu degani, 25-noyabrda ekilgan o'simliklar yaxshi unib chiqadi degan e'tiqod mavjud.

"Pluie du matin n'arrête pas le pèlerin" tarjimasi- *Ertalabki yomg'ir sayohatchini to'xtatmaydi*. Ma'nosi : Mayda qiyinchiliklar ishni to'xtatmasligi kerak.

"Quand le chat n'est pas là, les souris dansent" tarjimasi - *Mushuk yo'q joyda sichqonlar raqs tushadi*. Ma'nosi : Nazorat bo'lmasa, odamlar erkin harakat qilishadi.

"À chaque jour suffit sa peine" tarjimasi - *Har kunning o'z tashvishi etarli*. Ma'nosi: har kuni yangi muammolar bo'ladi, lekin ular bilan o'z vaqtida shug'ullanish kerak.

O'zbek matallariga keladigan bo'lsak, ular ham xalq donoligining ma'lum bir ko'rinishlaridan biri bo'lib, ularning yaratilishi uzoq tarixiy jarayon bilan bog'liq. Ushbu hikmatli so'zlar insoniyatning hayotiy tajribasi, milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarining mahsuli sifatida shakllangan.

O'zbek xalq matallari qisqa, ta'sirchan ibora bo'lib, odatda qaysidir holat yoki vaziyatni ifodalash uchun ishlatiladi. Matal - bu tugal ma'no ifodalamaydigan obrazli ibora, hikmatli so'z masalan: **"Qizil qoryoqqanda"**, **"Tuyaning dumi erga tekkanda"** Matal mustaqil fikrni to'liq ifodalamasligi mumkin, ko'pincha davom ettirilishi yoki tushuntirilishi kerak bo'ladi. Matal-majoziy yoki kinoyali ifoda hisoblanib, u ko'pincha tushuntirish talab qiladi. Maqol va matalning farqi shundaki, maqolda pand-nasihat kuchli bo'lsa, matalda esa ko'proq bevosita vaziyatlarga bog'liq bo'ladi. Matalar hamma vaqt tarkibi qanday bo'lishidan qa'tiy nazar, grammatik jihatdan gapning bir bo'lagi bo'lib keladi.

Maqol va matallarning o'xshash va tafovutli jihatlari ko'rsatilgan dastlabki tadqiqotlar rus folklorshunoslari V.I. Dal, I.M.Snegirev, A.A.Potebnya, F.I.Buslaevlarga tegishlidir. Ushbu mualliflar maqol va matallarni farqlash, ularni farqlovchi qat'iy mezonlarni belgilash bo'yicha qiziqarli fikrlarni bergenlar.

O'zbek matallari uzoq tarixga ega bo'lib, ular xalqning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan. Ular avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan va keyinchalik yozma adabiyotga kirib borgan. Matallarda qadimiy e'tiqodlar, marosimlar va xalq hayotidagi asosiy qadriyatlar aks etadi. Ba'zi matallar diniy va adabiy manbalar bilan bog'liq bo'lib, Qur'on va Hadisdagi hikmatli iboralar matal shaklida xalq orasida keng tarqalgan. Odamlar turmush tajribalarini qisqa va ta'sirli iboralar orqali ifodalashga harakat qilganlar.

O'zbek matallarining ba'zilari qadimiy turkiy yozma yodgorliklarda ham uchraydi. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning to'plovchilik faoliyati va uning "Devoni lug'otit turk" asari bunga yorqin misol bo'la oladi. "Devon"da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladi, ularning aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Alisher Navoiy va Bobur kabi

adiblarning asarlarida ham xalq matallaridan foydalanilgan. O'zbek folkshunos olim Bekjon Rahmonov ham Xorazm vohasidan 564 ta maqol va matalni yig'ib, "O'zbekcha otalar so'zi" (1933) majmuasini chop ettirgan.

Matal, odatda, notiq nutqi tarkibiy qismini tashkil etadi, ammo mustaqil qo'llanganda tugal fikr anglatmaydi. Masalan, xalqimizda "*Yaxshi gap bilan ilon inidan, yomon gap bilan qilich qinidan chiqar*" degan maqol bor. Agar maqolning yarim matnini "*Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi*" tarzida qo'llasak, biz matal aytgan bo'lamicha va "*Falonchi yaxshi gapirdi*" ma'nosini bildiramiz.

O'zbek matallaridan ayrim namunalardan keltiramiz:

"*Tomdan tarasha tushgandek*" ma'nosisi: biror kishi muloqotda yoki muhokamada hech qanday bog'liqligi bo'limgan gapni aytganda yoki harakat qilganda qo'llaniladi.

"*Shamol bo'lmasa, daraxtning shoxi qimirlamas*" ma'nosisi: biror hodisaning yoki mish-mishning ortida albatta bir sabab borligini anglatadi. Ya'ni, gap-so'zlar yoki shubhali voqealar bejiz tarqalib qolmaydi, ularning tagida bir haqiqat yoki sabab yotadi.

"*Qozonni suvga tashladik*" ma'nosisi: biror ish boshlab qo'yilganini, endi uning natijasini kutish kerakligini bildiradi. Ya'ni, bir jarayon boshlanganidan so'ng uni to'xtatib bo'lmaydi, natijasi qanday bo'lsa, shunday bo'ladi.

"*Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin*" ma'nosisi: Har qanday ishni o'z sohasining ustasi bajarsa, natija yaxshi bo'ladi. Tajribali va malakali odam hatto eng oddiy ishni ham mukammal bajaradi. Ya'ni, ish mutaxassis tomonidan bajarilishi kerak.

"*Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit*" ma'nosisi: kimgadir to'g'ridan-to'g'ri gapirish noqulay yoki odobsizlik bo'lishi mumkin bo'lgan hollarda, bilvosita aytildigan gap. Aslida nasihat yoki tanbeh kelinga qaratilgan bo'lsa-da, uni qizga aytgandek ko'rindi. Bu usul orqali muayyan fikrni yumshoqroq shaklda etkazish ko'zda tutiladi.

"*Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zadi*" matali zarurat tug'ilganda yoki manfaat bo'lsa, odam har qanday sharoitga moslashishga, hatto odatda qilmaydigan ishlarni qilishga tayyor bo'lishini anglatadi.

"*Qo'y og'zidan cho'p olmaydigan*" matali juda muloyim, hech kimga yomonlik qilmaydigan, beozor va kamtar odam haqida aytildi. Juda muloyim va beozor odamni tasvirlaydi. Hech kimga yomonlik qilmaydigan, birovg'a ozor bermaydigan inson haqida ishlatiladi. Ba'zan haddan tashqari yumshoqlik va jur'atsizlik ma'nosida ham qo'llanilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, matal xalq donishmandligi va hayotiy tajribasining natijasi bo'lib, unda chuqur ma'no mujassamdir. Matal bevosita emas, balki majoziy ifoda orqali tushuntiriladi. Ular odatda juda qisqa bo'ladi, lekin chuqur mazmunga ega. Biz bilamizki, matallar kundalik hayotda uchrayotgan hodisalar va inson xatti-harakatlariga asoslangan bo'ladi. Matallar orqali odamlar turli vaziyatlarga to'g'ri baho berishadi yoki muayyan xulosa chiqarishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarov, O. (2010). O'zbek xalq og'zaki ijodi. Musiqa nashriyoti.
2. Madayev, O. (2010). O'zbek xalq og'zaki ijodi. Mumtoz so'z.

3. Madvaliyev, A., Mahkamov, N., Mahmudov, N. (Rahbar), Xudoyberganova, D., & Odilov, O. (Tahr. hay'ati). (2021). O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli). O'zbekiston nashriyoti
4. Toshkanova, M. I., & Abdimurodov, D. D. (2024). Maqol va matallar: Ta'rif va ularning ahamiyati. Journal of Education, Ethics and Value, 3(11). ISSN: 2181-4392.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Matal>
6. Temirova, M. A. (2013). Maqol va matal differentsiatsiyasi. Ilmiy xabarnoma, ADU, (3).
7. Ikromova, L. (2021). MAQOL VA MATALLARNING MILLIY-MADANIY JIHATLARI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(6).
8. Boltayevna, I. L. (2024). Expression of seasons in french proverbs and sayings and their equivalents in uzbek. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2, 458-461.
9. Davronovna, K. S. (2024). The Polysemy of Phrasemes Expressing Emotions in French and Uzbek Languages. Miasto Przyszlosci, 48, 1417-1420.
10. Boltayevna, I. L. (2024). USE OF PROVERBS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2, 462-466
11. Ikromova, L. (2024). MAQOL VA MATALLARNING QIYOSIY CHOG'ISHTIRMA TAHLILI (FRANSUZ VA O'ZBEK MAQOL VA MATALLARI MISOLIDA). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 45.
12. Boltayevna, I. L. (2024, January). CULTURAL SIGNIFICANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS AND SAYINGS. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 1, pp. 173-176).
13. Икромова, Л. Б. (2024). СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ ФРАНЦУЗСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК. Miasto Przyszlosci, 48, 1413-1416.
14. Boltayevna, I. L. (2023). USE OF PROVERBS IN LITERATURE. Gospodarka i Innowacje., 42, 722-725.
15. Davronovna, K. S. (2024). The Polysemy of Phrasemes Expressing Emotions in French and Uzbek Languages. Miasto Przyszlosci, 48, 1417-1420.
16. Saidovna, S. Z. (2023). SPECIFICITES DES VERBES TRANSITIFS EN LANGUES FRANÇAISE ET OUZBEKE. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 12(06), 18-20.)
17. Xolova, S. (2023). AVOIR. FE'L I SHIYROKIDAGI INSON HIS-TUYG'ULARINI IFODA ETUVCHI FRAZEMALAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 33, 33.